


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs)
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQLIGAN:

- O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligining
2023 yil « 4 » 08 dagi 344 -sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		
1.	<i>60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs)</i> ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	<i>60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'yektlari.....	4
1.2.3.	<i>60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	<i>60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
2.3.1.	Kvalifikasiya.....	7
2.3.2.	<i>60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs)</i> ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar	8
2.3.3.	<i>60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs)</i> <i>60112400-Professional ta'lim (Xoreografiya)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	9
	Kelishuv varag'i.....	10

**1. 60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs)
bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi**

60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1 60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs)** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otionalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.

60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs) sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'lib, musiqa va san'at muassasalari va barkamol avlod markazlarida xoreografiya san'ati jamoalarini tuzish; xoreografiya san'ati sohasining xoreografiya jamoalari rahbari yo'nalishida, ijrochilarga zamonaviy raqslarni o'rgatish va ularni boyitish kompleks masalalari bilan bog'liq kasbiy sohalari majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'yektlari:

- davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti va muassasalari, musiqa va san'at muassasalari va barkamol avlod markazlari;

- xoreografiya san'atining turli soha va tarmoqlaridagi zamonaviy raqs yo'nalishidagi bolalar ashula va raqs ansambllari.

1.2.3. 60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ijodiy;
- ijodiy - tashkiliy;
- havaskorlik raqs jamoalariga rahbarlik;
- ijtimoiy va jamoa sohasidagi faoliyat;
- ishlab chiqarish.

1.2.4. 60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatining sohalari, ob'yektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ijodiy va ijodiy - tashkiliy faoliyatida:

- kasbiy faoliyatda xoreografiya san'ati sohasidagi maktabgacha ta'lim muassasalari va ansambllarda zamonaviy yo'nalishdagi raqslar sahnalashtirishi va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish;

- kasbiy faoliyatda o'tkazilayotgan tadqiqotlar asosida xoreografiya san'atini o'rganish va o'rgatishga doir yangi metodlarni tavsiya etish;

- zamonaviy yo'nalishdagi raqslar sohasiga doir mavjud metodikalar asosida eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish va ularning natijalariga ishlov berish;

- ijodiy - tashkiliy faoliyatda zamonaviy raqslar yo'nalishdagi tadbir, konsert, bayram dasturlarini yaratish va sahnalashtirish, raqs jamoalarini (to'garaklar, studiyalar, raqs ansambllari, ashula va raqs ansambllari) tuzish va unga rahbarlik qilish;

- zamonaviy yo'nalishdagi raqslar asarlarini (etyud, yakka va ommaviy raqs, duet) oddiy va murakkab raqs chizmalari orqali sahnalashtirish;

- zamonaviy yo'nalishdagi raqslar xoreografik asar sahnalashtirishda dramaturgiya qonunlariga qat'iy rioya etish;

- internet tarmog'ida sohaga oid eng yangi yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadli qidirib topish hamda amalda qo'llash.

Havaskorlik raqs jamoalariga rahbarlik:

- Yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ijodiy asosda tashkil qila olishi;

- soha ta'lim tizimiga mos o'quv muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va yakka mashg'ulotlarni o'tkazish;

- o'quv fanlarini o'qitish uslubiyotini egallash;

- zamonaviy axborot texnologiyalar asosida turli murakkablikdagi innovasion zamonaviy yo'nalishdagi raqs harakatlarni ishlab chiqish va o'rgatish;

Ijtimoiy va jamoa sohasidagi faoliyatida:

- zamonaviy davr talablariga javob beradigan konsert dasturlarini yaratish va sahnalashtirish;
- xoreografik raqs jamoalarining konsert repertuarini shakllantirish prinsiplarini ishlab chiqish;
- xoreografik jamoalarni (to'garaklar, studiyalar, ashula va raqs ansambllari va raqs ansambllari) tuzish va jamoani samarali boshqarish;

Ijtimoiy va jamoa sohasidagi faoliyatida:

- zamonaviy davr talablariga javob beradigan zamonaviy xoreografik kompozitsiyalardan iborat konsert dasturlarini sahnalashtirish;
- zamonaviy xoreografik jamoalarni (to'garaklar, studiyalar, zamonaviy raqs ansambllari) tuzish, mashg'ulotlar olib borish va jamoani samarali boshqarish;

Ishlab chiqarish faoliyatida:

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai-nazarga ega bo'lish;
- dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga olib bilishi;
- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyalariga asoslangan faol hayotiy nuqtai-nazarga ega bo'lishi;
- Axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- madaniyat va san'at muassasalari va tashkilotlarida, barkamol avlod markazlarida, bolalar musiqa va san'at maktablarida faoliyat ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

2. 60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;
- mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, tog'ri xulosa chiqarish madaniyatini shakllantirish;
- kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar va muammoli vaziyatlar yechimini topish usullarini tanlay olishda ijodiy jihatdan yondashish;
- kasbiy malaka va ko'nikmani hamda shaxsiy kamolotni takomillashtirib borish;
- jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va ijrochilar bilan samimiy, xushmuomalalik bilan muloqot qilish;
- ta'lim olgan va ta'lim berayotgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon etish ko'nikmasiga ega bo'lish;

- professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish va undan amaliyotda samarali foydalanish;
- kasbiy faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish;
- kasbga oid hujjatlar bilan ishlash;
- kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni shakllantirish;
- ta'lim yo'nalishlariga muvofiq kasb faoliyati sohasida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilish;
- umumiy xoreografiya sohasidagi amaliy dasturlarni san'at va madaniyat sohasi amaliyotida qo'llash;
- bilim va mahoratdan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish sifatini ta'minlash va ularni boshqarishda qo'llash;
- zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarini qo'llagan holda ijodiy ishlarni olib borish;
- kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda olib borish;
- zamonaviy xoreografiya san'ati sohasida intellektual, madaniy, ma'naviy, ijodiy, kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish borasidagi *bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarning egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar:

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirish, malakaviy amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek talabalarning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: xoreografiya jamoalari rahbari (Zamonaviy raqs).

2.3.2. 60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5340	178
Tanlov fanlar	1200	40
Malakaviy amaliyot	480	16
Yakuniy davlat attestatsiyasi	180	6

2.3.3. 60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs) ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	5340	178	
1.01	O'YT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	D1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	O'TSQ1106	O'zbek tilini sohada qo'llanilishi	180	6	1
1.04	F1304	Falsafa	120	4	3
1.05	XSATF1204	Xoreografiya san'atida axborot texnologiyalaridan foydalanish	120	4	2
1.06	MA1704	Ma'naviyatshunoslik	120	4	7
1.07	UPP13408	Umumiy pedagogika va psixologiya	240	8	3,4
1.08	MEN.MT1304	Musiqaning elementar nazariyasi. Musiqa tarixi	120	4	3
1.09	JO'XST11208	Jahon va o'zbek xoreografiya san'ati tarixi	240	8	1,2
1.10	TT1704	Teatr tarixi	120	4	7
1.11	JO'A16706	Jahon va o'zbek adabiyoti	180	6	6,7
1.12	KRA116028	Klassik raqs asoslari	840	28	1,2,3,4,5,6
1.13	XSRO'U13601 6	Xalq sahna raqsini o'rganish uslubiyoti	480	16	3,4,5,6
1.14	O'RO'U146014	O'zbek raqsini o'rganish uslubiyoti	420	14	4,5,6
1.15	EZRO'U117032	Estrada va zamonaviy raqsini o'qitish uslubiyoti	960	32	1,2,3,4,5,6,7
1.16	XS117032	Xoreograf san'ati	960	32	1,2,3,4,5,6,7
2.00		Tanlov fanlar	1200	40	5,6,7,8
		Jami	6540	218	
	MA	Malakaviy amaliyot	480	16	2,4,6,8
	YDA	Yakuniy davlat attestatsiyasi	180	6	8
		Jami	660		
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, zamonaviy raqs yo'nalishi, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat obyekti, ijodiy faoliyat turlari, kompetensiya, xoreografiya, zamonaviy xoreografiya, raqs, barkamol avlod muassasalari, maktabgacha ta'lim tashkiloti, ashula va raqs ansambllari, modul, profil, oliy ta'lim muassasasi, malaka talablari, o'quv fanlar bloki, asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, ta'lim jarayoni, mustaqil ta'lim, malaka amaliyoti, ishlab chiqarish, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
Rektor SH.Toxtasimov



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm
vazirligi Ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish
boshqarmasi

Direktor Sh.Yakubov
2023 yil



Boshqarma boshlig' N.Kasimov
2023 yil



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Rektor E.Shermanov
2023 yil



O'zbekiston davlat konservatoriyasi

Rektor K.Urinbayev
2023 yil



O'zbekiston davlat filarmoniyasi

Bosh direktor A.Tajiboyev
2023 yil



Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston
davlat akademik Katta teatri

Direktor R.Usmanov
2023 yil



O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi 60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim muassasalari va asosiy kadrlar iste’molchilari o‘rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ _____ ” _____ 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori Sh.Toxtasimov, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori v.v.b E.Shermanov hamda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi rektori K.Urinbayevlar birgalikda O‘zDXAda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60211600 - Xoreografiya (Zamonaviy raqs) ta’lim yo‘nalishi

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarorlari va 2023 yil 15-iyundagi “2023/2024 o‘quv yili uchun davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari tog‘risida”gi F-31-son Farmoyishiga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsifa etish mumkin.

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori v.v.b

E.Shermanov

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi rektori

K.Urinbayev

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori

Sh.Toxtasimov

